

**O‘zbekiston Oliy va O‘rta Maxsus talim vazirligi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti
Arab filologiyasi kafedrası**

**“Arab tili nazariy grammatikasi” fanidan
220500 sharq filologiyasi bakalavriaturasining
IV kurslar uchun ma’ruzalar matnlari**

3.09.08y
№2sonli
majlis
qarori bilan
tasdiqlangan

Umumiy soat hajmi: 52
Ma’ruza: 30
Amaliy mashg‘ulot: 22
Tuzuvchi: k.o‘qt. N.M.Orifxo‘jaev
Taqrizchi: dots. M.A. Nosirova.

Toshkent-2008

Grammatika nazariyasidan ma'ruzalar

So'z boshi

Mazkur arab grammatikasi nazariyasi kursi 52 soatga mo'ljallangan. Ma'ruza uchun 30 soat ajratilgan. Qolgan soatlar amaliy mashg'ulotlarga bag'ishlanadi.

Ma'ruzalarni tuzishda kundalik darslarda qo'llaniladigan arab tilidagi darsliklar, Az-Zamaxshariyning "ال نمونج" asari, Grandening "Grammatika arabskogo yazika v sravnitelno istoricheskom osveщenii" va boshqalardan foydalaniladi.

Kurs arab tili grammatikasining ilgari o'rganilmagan jixatlarini nazariy jixatdan asoslab sharxlab berishini nazarda tutadi.

Reja:

1. Grammatik tizim tushunchasi.
2. Grammatikaning turlari.

Grammatik tuzumning umumiy tavsifi

Mazkur kurs grammatika kursining nazariy jihatdan o'rganiga mo'ljallangan.

Malumki grammatika yunoncha so'z bo'lib, xarf, yozish san'ati manolarini anglatadi. Grammatika tilshunoslikning so'zlar o'zgarish shakllari va gapning tiplarini o'rganuvchi, so'z birikmalarining shakllarini o'rganuvchi qismidir.

Assotsiativ grammatika til birikmalarining formal yoki mantiqiy semantik xususiyatlariga ko'ra birikuvini o'rganadi. Shuningdek, grammatika:

- 1) So'z birikmalari va gaplarni turlanish va tuslanish bo'yicha tekshiradi.
- 2) So'zlar orasidagi leksik-semantik aloqalarni tekshiradi.

Grammatika so'z turkumlarini va til tuzulishini, ya'ni tilning grammatik tuzulishini o'rganadi. Grammatik qurulish esa tilning asoslaridan biri tilning negizi uning grammatik tizim qurilishi bilan leksikasidir. Grammatika bir necha ko'rinishlarga ega. Tashqi grammatika so'z turkumlarining gapdagi vazifasini o'rganadi. Ichki grammatika esa so'zlarning morfologik va ritmo-metodik jihatdan tuzulishini tekshiradi. Deskrativ (izoxli) grammatika izox metodi asosida tuzilgan, u so'z, so'z birikmalari va gaplarning qat'iy sinxronik izoxini ko'rsatadi. Tarixiy grammatika tilning turli davrdagi tarixiy taraqqiyot yo'llarini chog'ishtirgan holda so'zlar, so'z birikmalari va gaplarning tuzulishini o'rganadi. Sintagmatik so'z birikmalar va gaplarni nutqning elementi sifatida tekshiradi. Qiyosiy grammatika kelib chiqishi bir bo'lgan, yoki bir bo'lmagan turli tillarning grammatik qurulishini qiyoslash asosida tekshiradi. Qiyosiy g' tarixiy usul bilan ish ko'radi. Akademik grammatika ma'lum davrning(mamlakatning) asosiy ilmiy tashkiloti tomonidan ma'qullangan normativ grammatikadir. Ilmiy grammatika ilmning keyingi yutuqlari hisobiga olingan holda tuzilgan maktab grammatikasiga zid kelmaydigan grammatikadir, nomativ grammatika, grammatik qoidalarga malum norma belgilaydi, yani

to'g'ri namunali so'z shakllarini, sintaktik qurilishning modellarini tavsifiya etadi. Logik (mantiqiy) grammatika grammatik yo'nalishdir.

Konkret leksik manoni umumlashtirish abstraksiyalash yoki shu manoni ma'lum darajada chetlab o'tish, so'zlarning yordamchi funksiyasiga ko'chishi bilan mustaqilligini yo'qotish, so'z birikmalarining, so'zlarning analitik formasiga aylanishi grammatizatsiya deb ataladi. Masalan ko'ra, yarasha, qarab ravishdosh o'z manosi malum darajada yo'qotib yordamchi so'z vazifasini bajaradi: mexnatiga ko'ra (qarab, yarasha) xaq oladi. Bora-bora, turib-turib ravishdoshlari tarkibida harakat manosi kuchsizlanib, ravish funksiyasini bajaruvchi so'zga ko'chgan: bora-bora ko'zi ko'radigan bo'ldi. Bu gap turib-turib ta'sir qilardi. Xolbuki, bazan, baribir so'zlari aslida xol-bu-ki, bari-bir, bazi-on tipida tuzilgan birikmalar bo'lsa ham hozirgi tilda yordamchi so'z vazifasini bildiradi. Grammatikda bir necha grammatik tushuncha mavjud: grammatik abstraksiya leksik manodagi tashqari sof grammatik belgi va munosabatining aloxida olinishi, grammatik analiz – so'zlar orasidagi aloqani aniqlash: grammatik analogiya- so'z o'zgarituvchi shakllarni tenglashtirish: grammatik mano- formal mano. So'zlar konkret leksik manoni ifodalash bilan birga u yoki bu munosabatlarni ko'rsatuvchi grammatik manoga xam ega. Grammatik mano gapda bir so'zning boshqa so'zga munosabatini, so'zlovchining tinglovchiga, shaxsning yoki nutq mazmunining voqelikka, zamon va makonga munosabatini ifodalaydigan mano. Masalan, o'qib chiqdik birikmasi harakat manosi ifodalash bilanbirga unda harakatning o'tgan zamonda yuzaga kelgani, ko'p shaxs tomonidan bajarilgani, so'zlovchilar tomonidan yuzaga kelgani, va shu harakat bajarib tugallangani ifodalangan. Bular shu so'zning grammatik manosidir. Grammatik mano maxsus affikslar, yordamchi so'zlar, gap so'zlarning tartibi intonatsiya kabi vositalar orqali ifodalanadi.

Affiksatsiya usuli bilan so'z negiziga maxsus affikslar qo'shib grammatik mano ifodalanadi: kitoblarni, kuchlirog'ini. Gapda so'zlarning tarkibi malum manoda grammatik manoni ifodalashga xizmat qiladi: yaxshi ish boshlandi, ish yaxshi boshlandi.

Grammatik manoni ifodalashda intonatsiya katta ahamiyatga ega. Gapning turlari, so'z birikmalari, so'zlarning farqlanishi ham ko'pincha intonatsiya yordamida bo'ladi. Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya so'zlarning tuzulishi

va o'zgarishi, so'zlarning nutqda o'zaro birikshiga xizmat qiladigan struktura o'zgarishlarini, so'zlarning tuzulishi, ularning turkumlarga ajratilishi va bundagi qonuniyatlarni o'rganadi.

Sintaksis esa so'z birikmasida va gapda so'zlarning birikish yo'llarini, gapning strukturasini tiplarini, gap bo'laklarini tekshtradi.

Savollar:

1. Grammatika nima manoni anglatadi?
2. Tarixiy va qiyosiy grammatika nima?
3. Sintaksis va morfologiya tarifi?

Tayanch iboralar:

1. Grammatika
2. Tashqi grammatika
3. Ichki grammatika
4. Akademik grammatika
5. Qiyosiy grammatika

Adabiyotlar:

1. Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185 bet.
2. Kovalev A,A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998.
3. Ibrohimov N. I., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №2

Arab naxvning yaratilish tarixi.

Reja:

1. Grammatikaning yaratilishi ob'ektiv xodisadir.
2. Nahv ilmning paydo bshlishi haqida g'arb olimlarining fikrlari.

Jamiyatda hech qanday voqea, xodisa ob'ektiv zaruratsiz paydo bo'lmaydi. Til haqidagi ilm grammatika – naxv yaratilishi va

shakllanishi uchun biror bir tilni kimlargadir o'rgatish zarur bo'lib qolishi kerak.

Qur'onni karimning arablarning Quraysh qabilasida nozil bo'lgani ma'lum. Bu tilni arablarning hammasi ham tushunvermas edi. Islom dinining olamga tarqalishi arab tilini o'rgatishni zarur qilib qo'ydi.

Mana shunday ob'ektiv zarurat natijasida tarixan juda qisqa muddat ichida 1 asrdan ham kam muddatda naxv ya'ni arab grammatikasi ilmi shakllandi va takomilliga yetdi. Insoniyat tarixidagi munday xodisa ya'ni biror bir ilmning shu qadar qisqa vaqt ichida takomiliga yetishi bo'lmagan.

Naxv ilmining manbalari xaqida quydagilar malum.

1. Arab olimlarining ko'pchiligi va Yevropa olimlaridan Veys, Mes. Lixtenshtedters kabilarning fikriga ko'ra arablar naxv ilmini mustaqil ravishda o'sha paytgacha yaratilgan boshqa ilmlarga tayanmagan xolda yaratishgan.
2. Atoqli nemis arabshunosi Karl Brokkelman va uning izdoshlarining taxminicha arablar o'zlarining naxv ilmini Arastuning logika ilmiga tayanib yaratishgan. Chunki undagi ko'pgina tushunchalar mantiq ilmi tushunchalariga to'g'ri keladi.

Masalan, mantiq ilmidagi nomen vertum, tushunchalari bilan xamoxang.

3. Nemis olimi Follersning fikricha naxv qadimgi xind tili sanskrit, Panini grammatikasiga o'xshatib tuzilgan.

Sovet olimlarining bu haqdagi fikrini V.V. Zvyagensev o'zining 60- yillarda Moskvada nashr qilingan "Istoriya arabskogo yazikoznaniya" kitobida bayon etgan:

"Har uchulasi ham to'g'ri, lekin har birini aniq va mukammal deb topish mumkin emas".

Naxv ilmi tarixiga oid arab manbalarida bu ilmning yaratilishi xaqida ko'pgina rivoyatlar bor. Ularning mashxurlari:

Amirulmu'minin Ali shaxar kezib yurganda bir qori "At- tavba" surasidagi 9-oyatni quyidagicha o'qiyotganini eshitib qoladi.

Bunda quyidagicha tarjima bo'ladi: "Oллоh o'z mushriklari va o'z elchilaridan xoli." Aslida esa "Ollox va uning elchisimushriklaridan xoli".

Shundan keyin Imom Ali o'sha davrning mashxur allomasi Abu Asvad Ad-Dualini xuzuriga chaqirib dedi: Men shunchalik boradi deb o'ylamagandim. Sen til haqida shunday bir ilm yaratginki, u arab tilining Qonun Qoidalarini ifoda etsin. Odamlar

Qur'oni Karimni o'qishda bunday xatolarga yo'l qo'ymasin. Masalan, so'z, ism yo fel yoxud xarf bo'ladi va xokazo. Bir qancha muddatdan keyin Abu Asvad ad Duali qoidalar to'plamini olib keladi. Ali undan bu nima deb so'raganda "Men o'sha siz aytgan" deb javob beradi. Shundan boshlab arablarning til haqidagi qoidalari deb atala boshlandi. Shunga ko'ra Abu Asvad ad- duali birinchi arab naxvchisi hisoblanadi.

Uning yozgan asari esa afsuski bizgacha yetib kelmagan. Bir qancha tarixiy manbalarda aytilgan fikrga ko'ra bu asar anchamukammal asar bo'lgan. Undan keyin qator olimlar bu borada ish olib bordilar. (Almutaradd, Yusuf Siddiq alXalil Abu Axmad, al-Faroxidiy va boshqalar). Bulardan al-Faroxidiy xijriyning ikkinchi asrida yashab ijod etdi va arab tilshunosligi rivojiga katta xissa qo'shdi.

Savollar:

1. Arab nahvi qanday muddat ichida shakllanadi?
2. Arab olimlari arab naxvini yaratishda nimalarga tayandilar?

Tayanch iboralar.

1. G'arb olimlarida Veys, Mes, Lixtenshtendters.
2. Follersning arab naxvining paydo bo'lishidagi fikrlari.

Adabiyotlar:

1. Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
2. Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
3. Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №3

Arab naxvini yaratishga xissa qo'shgan boshqa maktablar

Reja:

1. Arab naxvini yaratishda salmoqli xissa qo'shgan olimlar: As sibaveyxi, al-Xalil, al-Faroxidiy.
2. As-sibaveyxining al-Kitob asari.

O'tgan maruzamizda biz arab naxvining yaratilishi tarixi haqida suxbatlashgan va bu soxaga ulkan xissa qo'shgan olimlarning nomlari va ular yaratgan asarlarni zikr etib bizning kunimizgacha ular yetib kelmaganligini aytib o'tdik.

Shubxasiz bizgacha yetib kelgan asarlar ham ma'lum. Bular Sibaveyxining "Al-Kitab" asaridir. Sibaveyxi o'zi fors bo'lishiga qaramay arab tilini mukammal o'rgangan. 32 yoshlarida u Al-Xalil Al-Faroxidiyga shogird tushib undan naxv ilmining sirlarini o'rganadi.

Sibaveyxining Al-Kitab asari 565 bobdan iborat bo'lib, arab naxvining hamma asosiy qonun qoidalarini bayon etadi. Sibaveyxidan keyin naxv ilmi bilan shug'ullangan olimlar asosan Al-Kitabdagi

qoidalarni boshqa soʻzlar bilan tarif etish, boshqa misol bilan tasdiqlash orqali oʻrganishardi.

Sibaveyxining asari mukammalligi sababli undan keyingi davrdagi tilshunosli koʻproq naxv bilan emas, balki tovushlar ilmi, lugʻatshunoslik kabi ilmlar bilan shugʻullanib koʻpgina asarlar yaratishdi.

Sibaveyxining vafotidan keyin uning shogirdlari naxv ilmini oʻrganishni davom ettirishdi. Oʻzlariga yarasha toʻgarak, maktablar tashkil etdilar.

Xuddi shu davrda Iroq janubida yana bitta madaniyat markazi Kufa shaxri rivojlanib koʻp soxalarda, shu jumladan naxv ilmida Basra raqobat qila boshladi. Kufadagi naxvchilar dastlab Ar-Rausiy, keyinchalik uning shogirdi Al-Kisaiy boshchiligida oʻz toʻgaraklarini, maktablarini shakllantirdilar. Ularning baʼzi masalalarga yondoshishlari basraliklaridan birmuncha farq qilar edi. Shunga koʻra naxv ilm tarixida Basra-Kufa mazxablari paydo boʻldi. Bu ikkala mazxab oʻrtasidagi ixtiloflarga sabab boʻlgan 116 ta masala At-Tabariyning Ushbu asarida jamlangan.

Bu raqobat naxv ilmining rivojiga ancha taʼsir koʻrsatdi. Bir ikki asrdan soʻng ixtilofga sabab boʻlmagan muxm masalalar markazi Bagʻdodda ham naxvchilarning toʻgaraklari hosil boʻlgani va ular baʼzi masalalarda basraliklardan, goxo kufaliklarning fikrlarini qoʻllagani sabab boʻlib, ular oʻrtasidagi ixtiloflar susayib bordi va bu mazxablarga yoʻqlikka yuz tutdi.

Yuqorida taʼkidlanganidek naxv ilmi Qurʼoni Karimni toʻgʻri oʻqish, dini islomni tushunish uchun dunyoga kelgan. Paygʻambarimiz Muhammad solloloxi alayhi va sallam vafotlaridan keyin har xil mazxablarning paydo boʻlishi, musulmonlarning u yoki bu masalani har xil tushunishlari naxv ilmida xam oʻz aksini topdi. Bundan tashqari arablar va boshqa musulmon xalqlarining falsafa mantiq, tarix adabiyot kabi ijtimoiy fikrlarni oʻrganish ham naxv ilmiga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Oqibatda 11-12 milodiy asrga kelib bu ilm ancha murakkablashib, chalkashib ketgan edi. Bunga birinchi boʻlib eʼtiborini qaratgan Andalusiyalik olim ibn Mazoiy al-Qurtubiydir. U naxv ilmini oʻrganish maqsadida magʻribdan mashriqqa keladi va umidi puchga chiqib bu ilmni yo asliga qaytarish keark, yo undan butunlay voz kechish kerak degan taklif bilan bir risola yozadi. Tabiiyki oʻsha vaqt ulamolari bu taklifga jiddiy eʼtibor berishmaydi.

Oʻrta asr ilm-fanning barcha soxalari kabi naxv ilmi uchun ham turgʻunlik davri boʻlib qoldi.

Savollar.

1. As-sibaveyxining al-Kitab asari necha bobdan iborat?
2. Kufadagi grammatika maktabini dastlab kim boshqardi?

Tayanch iboralar.

1. Basra
2. Kufa
3. Bogʻdod
4. Grammatika maktablari.

Adabiyotlar:

- 1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
- 2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
- 3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Maʼruza №4

19-20 asrlarda arab grammatikasining rivojlanishi Surati

Reja:

1. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Usmonlilar imperiyasining inqirozi va yaqin sharq mamlakatlarida mustamlakachilik siyosatini avj olishi.
2. Arab olimlarining Yevropa maktablarida talimmolishlari va uning arab naxvchilari maktabini yaratishdagi roli.

19 asrning oxiridan boshlab Usmoniylar imperichsi inqirozga uchrab, Yaqin va Oʻrta sharqda Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik siyosati oshirila boshladi. Shu sababli naxv ilmida ham boshqa ilmlardagi kabi turgʻunlik davri boshlandi.

20 asrning 20- yillaridan boshlab bu mamlakatlarda milliy ozodlik xarakatlari kuchaya boshladi. Bu xarakatlarga asosan milliy burjuaziya vakillari, Yevropadagi ilmlarni oʻrgangan vatanparvarlar boshchilik qilishdi. Ikkinchi jaxon urushidan keyin mustamlakachilik tuzumi yemirilib, qator mustamlaka mamlakatlar ozodlikka erisha boshladi. Mustaqillikni qoʻlga kiritgan davlatlar oldidagi eng asosiy

vazifalardan biri umumiy madaniy saviyani boshqa rivojlangan xalqlar darajasiga ko'tarish edi. Buning uchun xalqni savodli qilish, yani o'qish va yozishni o'rgatish lozim bo'ldi. Naxv ilmining murakkablashib ketganligi va arab adabiy tili bilan laxjalar o'rtasidagi farqning kattaligi yalpisiga savodxonlikka erishish uchun jiddiy to'siq edi. Shunga ko'ra naxv ilmini islox qilish kerak edi. Yoki bo'lmasa yevropaliklarnikiga o'xshamagan yangi ilm yaratish kerak degan fikrlar paydo bo'ldi. Buning sababli ko'pgina taraqqiyparvar arab siyosiy va jamoat arboblarning aksariyati Yevropacha usulga tayanishdi. Yevropa tillarini yaxshi biladigan, demak Arastunin grammatikasiga asoslangan tilshunoslikni o'rganishgan edi. Ular naxv ilmining murakkabligini, uni o'rgatish uchun ancha vaqt lozimligini hisobga olib naxvni isloh qilish, ya'ni Yevropa tillari grammatikasiga o'xshatib soddalashtirishni taklif qildilar. Bu taklifni Ibroxim Mustafo Anbiyo o'zining 1939 yilda nashr qilingan "Ixyau an-naxvi" kitobida bayon qildi. Arab tilining allomasi xozirgi zamon arab adabiyotining otasi Toxa Xuseyn bu kitobga muqaddima yozib undagi fikrni maqullagan edi. Bu orada boshlanib ketgan bunday masalalarni kun tartibidan chiqarib qo'ydi. Urush tugaganidan keyin 1948 yilda Misr Fanlar Akademiyasi shu masalani mukammal o'rganib takliflar kiritish uchun maxsus xayoat tuzdi. Xayat 1952 yilda o'z takliflarini bayon qilib aloxida kitob shaklida nashr etdi va keng omma muxokamasiga qo'ydi. Boshlanib ketgan arab -Isroil urushi bu masalani xal qilinishiga xalal berdi. So'nggi marta bunday takliflar 1970 yil o'rtalarida yana ko'tarildi. Ammo arab vatanparvarlari arablarning birligi uchun kurashayotgan siyosiy va jamoat arboolari bunday takliflar jaxon imperializmining nayrangidir. Shunday takliflar bilan chiqayotgan kishilar imperializmining malaylari, josuslari deb keskin va qat'iy rad etdilar. Ularning ta'kidlashlaricha arablarni bir millat, bir xalq qilib turgan omil tarixiy madaniy merosdir. Arab naxviesa ana shu madaniy merosning ajralmas qismidir. Undan voz kechilsa arablarning birlashtirib turuvchi omil qolmaydi va demak arablar tarqoq xalqlarga bo'linganlircha qolaveradilar. Imperializmga esa xuddi ana shu kerak. Yuqoridagi fikrlar shubxasiz xato edi.

Savollar:

1. Milliy ozodlik xarakatlariga kimlar boshchilik qildi?
2. Arab grammatikasini soddalashtirish fikrini kim o'rta tashladi.?

Tayanch iboralar:

1. Yaqin va o'rta sharqda milliy ozodlik harakati.
2. Arab naxvini soddalashtirishga bo'lgan intilish.

Adabiyotlar:

- 1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
- 2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
- 3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №5

Az-Zamaxshariy arab naxvining asoschilaridan Biri

Reja:

1. Abul-Qosim Maxmud az-Zamahshariy arab naxvining asoschilaridan biri.
2. Arab naxvida gap.

Abul-Qosim Maxmud az-Zamaxshariy 1075 yilda, ya'ni 11 asrda Xorazm voxasidagi Zamaxshar qishlog'ida dunyoga kelib 1140 yilda vafot etdi. U yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa diniy ilmlarga va falsafa, til, adabiyot ilmlariga katta moyilligi borligini namoyon etdi. U nogiron bo'lishiga qaramay Makkaga safar qilib u yerda ikki yildan ortiq toat-ibodat va ilm-fan bilan shug'ullandi va shuning uchun xam Jarullox martabasiga erishdi. Az-Zamaxshariyning Qur'on tafsiri, xadis sharxi, grammatika, lug'atshunoslik, balog'at ilmlari va boshqa soxalarga oid bo'lgan asarlari 2ta bo'lib, bular Al-Mufasssal va Inmuzajdir. Naxv ilmi Tarixchilaridan ba'zilar fikricha avval "al-mufasssal" bo'lib, keyin "Inmuzaj" bitilgan, ba'zilarining fikricha esa aksincha.

Har qanday bo'lganda ham bu ikki asar xanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Arab tilini o'rganuvchilar uchun darslik, qo'llanma vazifasini 8 asrdan beri o'tab kelayapti.

Arab naxvida gap

Arab naxvida gap deb, biror foydali xabar beruvchi birikmaga aytadi. Demak gapning biror qismi tinglovchi uchun yangilik bo'lishi kerak. Bu fikr hozirgi zamon tilshunosligidagi aktual taqsimlash g'oyasi bilan bir xil desak bo'ladi. Yani bunda tema –gapning mavzusi, tinglovchi yoki o'quvchi malum bo'lgan qismi va tema tinglovchi uchun noma'lum bo'lgan qismi uning uchun yangilik bo'lgan ma'noni ifodalovchi qismdan iborat bo'ladi.

Tema qismi, ya'ni gapning asosiy qismi “mubtado, foil” deyiladi. Tema qismi “xabar, fel” deb ataladi

Ismdan boshlangan gap ismiy jumla deyiladi. Ya'ni bunday gap mubtado va xabardan iborat bo'ladi.

Fe'ldan boshlangan jumla fe'liy jumla deb atalib, fe'l va foilni o'z ichiga olishi kerak.

Savollar.

1. Az-Zamaxshariy qaerda va qachon tug'ildi?
2. Az-zamaxshariyning eng mashxur asarlari qaysilar?

Tayanch iborpalalar.

1. Arab naxvida xabar, fe'l, mmubtado.
2. Mubtado va foilning farqlari.

Adabiyotlar:

- 1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
- 2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
- 3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №6
Gapda ega va kesimning vazifasi

Reja:

1. Grammatik ega qanay ifodalaniladi.
2. Psixologik ega va uning jumladagi o'ri.

Gapning grammatik egasi bosh kelishikda turadi, boshqa hech qanday so'zga tobe bo'lmagan so'z bo'ladi.

Grammatik ega

Psixologik ega so'zlovchi kim yoki nima xaqida gapirayotganini bildirayotgan bo'lak.

O'zbek va rus tillarida psixologik ega grammatik egadan boshqa bo'lib, gapda so'z tartibi, oxang va imo-ishoralar bilan anglashiladi.

Masalan:

Axmadni kecha ko'rgan edim.

Arab tilda esa bunday ega muftado grammatik ega bilan bir bo'ladi, ya'ni

Arab tilida logik ega, yani shu harakatning xaqiqiy bajaruvchisi ma'lum bo'lsa, u gapda grammatik ega tarzida ifodalaniladi. Agar grammatik ega bilan logik ega boshqa-boshqa bo'lsa, majxul daraja ishlatilib logik ega umuman ifodalanmaydi.

Masalan:

Bino ishchilar tomonidan qurildi.

Bunday xolda:

Ishchilar binoni qurdilar.

Eslatma: ish-xarakatni bajaruvchi ma'lum bo'lganxolda arab tilida majxul daraja ishlatilmaydi.

Ism bobi-(ta'rif)

So'z bitta birlik bo'ladi. Uism, fe'l yoki yuklama bo'ladi.

Gap yoki biri ikkinchisiga kesim bo'lgan ikki ismdan iborat bo'ladi, yoki fe'l va bir ismdan. Bu kalom yoki jumla deb ataladi.

Ism bobi

U haqda gapirsak to'g'ri bo'ladi. Unga predlog oladigan, izofa birikmasiga ko'ra oladigan, aniq xolatda qo'yiladigan, tanvin oladigan so'zlarga aytiladi.

Savollar:

1.O'zbek va rus tilidagi psixologik va grammatik eganing farqi.
Arab tilida Logik ega degnada nimani tushunamiz.

Tayanch iboralar.

1. Jumladagi: Grammatik, Logik, Ega.
2. Ism, Fe'l va xarf.

Adabiyotlar:

- 1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
- 2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
- 3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №7
Ismlarning tasnifi

Reja:

1. Arab turdagi turdosh ot tasnifi
2. Kelishiklarda O'zgaradigan otlar.

1. Turdosh ot.

Ikki xil bo'ladi: aniq ko'rsa bo'ladigan otlar, mavxum otlar.

2. Atoqli ot.

Turdosh otdan naql qilinadi. Ko'pincha turdosh otdan yasaladi.

Fel'dan ham yasalishi mumkin.

Ma'noga ega o'lmasligi ham mumkin.

Kelishiklarda o'zgaradigan ot

U ikki xil bo'ladi.

1. To'liq turlanadigan 3 kelishlikli ot. Bunday ot bosh, qaratqich, tushum kelishigida bo'ladigan va tanvin bo'ladi.

Masalan:

2. To'liq turlanmaydigan ismlar, ya'ni ikki kelishlikli otlar.

3. Bunda qaratqich kelishigi (kasrali) va tanvinli bo'lmaydigan so'zlar.

Qaratqich kelishigi fatxa bilan xarakatlanadi.

Masalan6

Agar izofa birikmasiga kirsam yoki aniqlik artikli bilan kelsa kasrali bo'ladi.

Masalan:

Otlarning turlanilishi

Ma'lumki so'zning oxiri har xil omillar bilan o'zgaradi. Omillar ta'sirida so'zning oxirida yuz beradigan o'zgarish "i'rob" deb ataladi.

So'z oxirida o'zgarish yo harakatlarda bo'ladi:

Yoki xarflarda namoyon bo'ladi. Bu quyidagi 6 ismdan namoyon bo'ladi.

1. Agar ular izofa birikmasida bo'lsalar, aniqllovchilari 1-shaxs, birlik son, birikma olmoshi bo'lmasa.

Masalan

2. So'zining oxiridagi o'zgarishlar ham xarfda bo'ladi.

Masalan:

Ta'kidlovqi olmoshlarda agar ular olmosh bilan izofa xosil qilinsa:
Masalan:

3. Ikkilik va to'g'ri ko'plikda xam xarflarda namoyon bo'ladi.

Masalan:

To'liq turlanishni man qiladigan sabablar 9 ta

1. Ismning atoqli ot bo'lishi
2. Muannas (muannasda qo'yilishi)
3. Fe'l qolipida bo'lishi
4. Sifat qolipida bo'lishi.
5. So'z shakli o'zgarish yoki buzilishi.
6. Ko'plikda bo'lishi
7. Qo'shma so'z bo'lishi
8. Ajnabiy so'z bo'lishi
9. Muannas jinsning ikki alifiga o'xshash so'zlar

Bu sabablardan ikkitasi bir ismda bo'lsa, yoki 1 tasi takrorlansa, ism to'liq turlanmaydigan, ya'ni ikki kelishikli bo'ladi.

3ta xarfdan iborat bo'lgan, 2-yani o'rta xarf sukunli bo'lganligi bundan mustasno.

Bundan ikki xid fikr bor.

1. Yengilligi uchun to'liq turlash
2. Yuqoridagi sabablarning 2 tasi borligi uchun (atoqli ot, ajnabiy so'z) to'liq turlanmaydi. Har qanday to'liq turlanmaydigan atoqli ot noaniq bo'lganda turlanadi.

Savollar:

1. Arab tilida atoqli va turdosh otlar qanday tovsiflanadi?
2. Arab tilida qaratqich kelishigi qachon ishlatiladi?

Tayanya iboralar.

1. Otlar: atoqli va turdosh
2. Kelishiklarning: bosh, qaatqich tushum.

Adabiyotlar:

- 1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
- 2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
- 3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №8
Otlarning bosh kelishikda kelishi

Reja:

1. Bosh kelishikdagi ismlarning turlari
2. Muftadoning aniq va noaniq xolatda bo'lishi
3. "Kana" va unga o'xshash fe'llar kesimini ega oldinga o'tish o'tmasligi.

Bosh kelishikda ismlar ikki xil bo'ladi.

Asl va unga o'xshagan.

Asl (bosh kelishik) ism ish-xarakatning bajaruvchisining nomi, ya'ni sub'ekt.

Fe'liy jumlaning egasi. U o'z navbatida ikki xil bo'ladi.

1. Zoxir-ochiq oydin, yashirinib turmagan

Masalan:

Zayd urdi.

2. Yashiringan (botiniy)

Masalan:

Urdu Zayd.

Bosh kelishikdagi ismlar besh xil bo'ladi.

1. Muftado va uning xabari.(Arab naxvida fe'liy jumla deb, fe'ldan boshlanadigan jumlagaga aytiladi. Muftado- ismiy gapning boshidagi so'z. Xabar deb ismiy jumla kesimiga aytiladi.

Muftado odatdagi aniq xolatda bo'ladi. Noaniq xolatda ham kelishi mumkin. Xabar odatda noaniq xolatda bo'ladi. Ikkalasi ham aniq xolatda kelishi mumkin.

Masalan:

Ollox bizning iloximiz, Muxammad bizning payg'ambarimiz.
Xabar ikki xil bo'ladi.

1. Birlik: Zayd sening quling (o'g'ling, xizmatkoring, farzanding)

Ya'ni bitta so'zdan iborat bo'lishi mumkin.

2. Jumla, gap bo'lishi mumkin. Jumla bo'lib kelganda 4 xil bo'lishi mumkin.

a) Fe'liy jumla

Zaydning otasi ketdi.

b) Ismiy jumla. Amirning akasi ketdi.

v) Shart gap bo'lishi mumkin.

Zayd – sen sen uni hurmat qilsang, u seni hurmat qiladi.

g) Xolli gap

Xolid seni oldingda.

Bunda turibdi yoki o'tiribdi kabi so'zlar bor deb faraz qilinadi.

Xabar jumla bo'lib kelganda, muhtadoga qaytuvchi olmosh bo'lishi shart. O'z- o'zidan ma'lum so'zlar bundan mustasno.

Xabar muhtadodan oldinga qo'yilishi mumkin.

Ikkovlaridan biri tushib qolishi mumkin. Ma'no ravshan bo'lganida:

2) "kana" va shunga o'xshaganlar to'liqsiz fe'l bilan boshlanadigan jummalarning egasi.

3) "inna" kabi yuklamalar bilan boshlanadigan jummalarning kesimi.

Bunday kesimlarning egadan oldinga o'tishi qoidasi umumiy (umumiy qoidalarga bo'linadi). O'rin-payt xoli bilan ifodalangan bo'lsa, bundan mustasno bo'ladi.

Masalan:

4) Mutlaq inkor yuklamasi bilan boshlanadigan jummalardagi xabar.

Masalan:

5) "laysa" ma'nosidagi "la" va "ma"

Savollar.

1. Necha xil ismlar bosh kelishikda bo'ladi?

2. "Kana" ga o'xshash fe'llarning kesimini egadan oldinga o'tkazish mumkinmi?

3. Muhtado va xabar aniq xolatda bo'lishi mumkinmi?

Tayanch iboralar.

1. "Kana" va "Sora", "Laysa", "Asbaxa", "Bata" va boshqalar.

2. "Adxo", "Zolla"

3. "amsa", "MA dama"

Adabiyotlar:

- 1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.
- 2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998
- 3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza№9

Tushum kelishigida keladigan ismlar.

Reja:

1. Tushum kelishigidagi ismlarning turlari

2. To'ldiruvchilarning turlari

Bunday ismlar ikki xil bo'ladi.

Asl va unga o'xshash otlar

Asl tushum kelishigidagi ismlar. Ular 5 xil bo'ladi.

1)ma'ful mutlaq

U masdir bilan ifodalanadi. U fe'lning ma'nosini ta'kidlaydi.

Bunday so'zlar quyidag xolatda ishlatiladi. Ta'kidlash, ayniqsa ko'p ma'noli va xar xil qolipdagi masdarlari bor fe'llar bilan. Biror bir aniqllovchi bilan kelib ish-xarakatning qay tarzda bajarilganligini bildirish uchun.

2) "ma'ful bixi" (vositasiz to'ldiruvchi) Masalan:

Vositasiz to'ldiruvchi yashiringan fe'l sababi bilan ham tushum kelishigiga qo'yiladi. Masalan:

Izofa birikmasidagi undalma shunga kiradi.

Yoki izofa birikmaisga o'xshash birikma.

Bitta so'zdan iborat bo'lib, aniq xolatda turgan undalmalar talaffuzda damman, ma'no jixatdan tushum kelishigida bo'ladi.

Undalmaning bitta so'zdan iborat aniqllovchisi bo'lsa, albatta tushum kelishigida bo'ladi. Masalan:

Undov yuklamalaridan keyin faqat bosh kelishik bo'ladi. Undalma atoqli ot bo'lsa, izofa birikmasidan iborat bo'lmasa undov yuklamasiga tushib qolishi mumkin. Bunda undalma albatta dammali bo'ladi.

3) Ma'ful fixi.

Bu 2 ta ravish (yoki xol) o'rin va payt xollari bo'lishi mumkin. Payt xoli yoki ravish tushum kelishigida turadi.

Masalan:

O'rin xollaridan faqat mavxumlari tushum kelishigida bo'ladi.

Aniq o'rin xollarida albatta predlog bo'lishi kerak.

4) Ma'ful ma'axu – dopolnenie sovmestnosti. Birgalikdagi to'ldiruvchi. Ish-xarakatning biror bir sub'ekt bilan bir vaqtda sodir qilinganligini ko'rsatadi. Masalan:

Bunday to'ldiruvchi bo'lishi uchun gapda fe'l yoki ish-harakat ma'nosi bo'lishi shart.

6) Maf'ul laxu. Biror bir ish-harakatning sodir bo'lishi uchun maqsad yoki sababni bildirgan har qanday so'z ham maf'ul laxu deb ataladi.

Savollar.

1.Necha xil ismlar tushum kelishigida keladi?

2.To'ldiruvchi necha xil bo'ladi?

Tayanch iboralar.

1. Dorban

2. Sobran

3. Ta'diyban

Adabiyotlar:

1.Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.

2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998

3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.

Ma'ruza №10
Qaratqich kelishigidagi ismlar

Reja:

1. Ismlarning qaratqich kelishigida kelishi turlari
2. Izofa turlari

Ikki xil bo'ladi. Izofa tufayli hamma predlog tufayli qaratqich kelishigida qo'yilgan. Masalan:

Izofa 2 xil bo'ladi:

1. Ma'no jixatdan izofa birikmasi, haqiqiy izofa.

Masalan:

2. Shakliy izofa (formalniy- Grande)

Ish – harakatining bajaruvchining nomining ob'ekt nomiga qo'shilishi mumkin.

Sifatdoshning, fe'ldan yasalgan sifat, sifatdosh ma'nosidagi sifat (kvoze prichastie) ning ish-harakat bajaruvchisi foilga qo'shilishidan xosil bo'lgan izofaga lafziy izofa deyiladi. Masalan:

Izofanin birinchi komponenti aniqlanmish, ikkinchisi aniqlovchi. 1-komponent aniqlanmish aniqlik artiklidan maxrum qilinishi shart.

Masalan:

Ma'naviy izofada 2-komponent aniq xolda bo'lsa, 1-komponent ham aniq xolda bo'ladi. Quyidagi szlar bundan mustasno.

Savollar.

1. Necha xolatda ismlar qaratqich kelishigida bo'ladi?
2. Necha xil izofa bor.

Tayanch iboralar.

1. Kitobut tolibi
2. Xadiqotul madrasati

Adabiyotlar:

1. Xolidov B.Z. Uchebnik arabskogo yazika, Toshkent, 1981. 185-bet.

2.Kovalev A. A, Sharbatov, Uchebnik arabskogo yazika, Moskva, 1998

3.Ibrohimov N.I. Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1997.